https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Sarsenbaeva Amangúl Maxsetovna
Berdaq nomidagi QQDU
Ózbekiston va Qoraqalpoǵiston tarixi kafedrasi o'qituvchisi

YOSHLAR SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA IJTIMOIY HARAKATLARNING RÓLI (QORAQALPOǴISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi, shu jumladan Qoraqalpog'istondagi yoshlar tashkilotlarining sovet davridan hozirgi kunga qadar bosib o'tgan evolyucion yo'li tahlil qilinadi. Tadqiqotda Komsomolning mafkuraviy tuzilishi, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqining zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardagi o'rni qiyosiy o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar ittifoqi, Komsomol, Kamolot, yoshlar siyosati, ijtimoiy lift, transformaciya.

В данной статье анализируется эволюционный путь, пройденный молодежными организациями Республики Узбекистан, в том числе Каракалпакстана, с советской эпохи до наших дней. В исследовании сравнительно изучены идеологическая структура комсомола, духовно-просветительское значение общественного движения молодежи "Камолот" и роль Союза молодежи Узбекистана в современных социально-экономических реформах.

Ключевые слова: Союз молодежи, Комсомол, Камолот, молодежная политика, социальный лифт, трансформация.

This article analyzes the evolutionary path of youth organizations in the Republic of Uzbekistan, including Karakalpakstan, from the Soviet period to the present day. The study comparatively examined the ideological structure of the Komsomol, the spiritual and educational significance of the "Kamolot" youth

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

social movement, and the role of the Youth Union of Uzbekistan in modern socio-economic reforms.

Keywords: Youth Union, Komsomol, Kamolot, youth policy, social elevator, transformation.

Kirish

Bugun jahon civilizatsiyasi shu darajada rivojlanmoqdaki, dunyo mamlakatlari har bir sohada, u xoh davlat boshqaruvi, xoh iqtisodiyot yoki ijtimoiy soha bo‘lsin, ushbu sohalar taraqqiyotiga, yoshlar kelajakning harakatlantiruvchi kuchi ekanligiga, ularning ilmiy va ma’naviy salohiyatini oshirishga e’tibor qaratmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo aholisining 2 milliarddan ortig‘ini, O‘zbekiston aholisining qariyb 60% dan ortig‘ini yoshlar tashkil etishi.[1]

Shundan kelib chiqib dunyo hamjamiyati har qachon yoshlarni davlatni harakataga keltiruvchi kuch sifatida e’tifor etib kelgan. Bugun mamlakatimizda aholining 19 milliondan ziyodini yoshlar tashkil etadi. Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish bo‘yicha mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga mos rivojlanib bormoqda. O‘tgan yillar davomida yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan 47 ta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta Farmoni, 10 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 32 ta qarori va farmoyishi qabul qilindi.[2]

O’zbekiston davlatchiligi tarixini o’rganar ekanmiz yoshlarni bir maqsad yo’lida birlashtirgan ijtimoiy harakatlar, tashkilotlar evolyuciyasini ko’rishimiz mumkin. Bugungu kunda yoshlar tashkilotlari mafkuraviy quroldan ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash instrumentiga aylandi. Maqolad Sobiq ittifoq davridagi komsomol, mustaqillikning ilk yillaridagi "Kamolot" va hozirgi "Yoshlar

[1] Mirzaxmedov X., «Jámiyatning transformaciyasida yoshlar axloqi»., Yangi Ózbekistonning istedodli yoshlari- Ilmiy ishlar tóplami., T-2021

[2] Sársenbayeva A. «Ózbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish» Toshkent «Tamaddun» 2024.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ittifoqi"ning strukturaviy va funksional farqlarini ilmiy tahlil qilishga harakat qilingan.

Metodologiya

Mazkur maqolani yozishda qiyosiy-tarixiy tahlil va hujjatlar bilan ishlash metodlaridan foydalanildi. Shu yo'l bilan tashkilotlar tarixi, maqsad va vazifalarini analizlashga harakat qilindi.

3. Results (Natijalar)

Ma'lumki 1991-yilga qadar Sobiq Ittifoq tarkibiga kiruvchi davlatlarda yoshlarining hayoti Butunittifoq leninchi kommunistik yoshlar ittifoqi (VLKSM) tomonidan to‘liq nazorat qilingan. Ushbu tizimning ierarxik tuzilishi "demokratik sentralizm" tamoyiliga asoslangan edi. Komsomolning asosiy vazifasi yoshlarni Kommunistik partiyaning sodiq yordamchilari sifatida tarbiyalash bo‘lgan. Bu davrda tashkilot shunchaki klub emas, balki davlat boshqaruvining bir bo‘g‘ini edi. Bolalar 7 yoshdan "Oktabrchi", 10 yoshdan "Pioner" va 14 yoshdan "Komsomol" a'zoligiga qabul qilingan. Bu bosqichma-bosqich o‘sish yoshlarning ijtimoiy liftini belgilab bergan. Qoraqalpog'iston hududida shu kabi ilk yoshlar tashkilotlari 1925-yil oktyabr oyida paydo bo'ladi. Shu vaqtlardagi statistik ma'lumotlarga ko'ra dastlabki tashkilot a'zoligiga 2 mingdan ziyot o'g'il- qizlar qabul qilinadi.

Tashkilot o'z davrida "Zarbdor qurilishlar" masalan Taxitosh GRESini qurish, cho'l hududlarini o'zlashtirish uchun asosiy ishchi kuchini yetkazib bergan. Talabalarning qurilish otryadlari orqali yoshlar davlat iqtisodiyotiga bevosita jalb qilingan. Ushbu tizim 1950-yillarning oxiridan boshlab shakllangan bo‘lib, yoshlarni iqtisodiy jarayonlarga jalb qilishning asosiy mexanizmi hisoblangan. Masalan 1947- yil Sharjaw-Qo'ng'irot temir yo'lini qurish haqida qaror qabul qilingandan so'ng O'zbekiston, Turklmaniston va Qoraqalpog'istondan jami 70 ming yosh, shu jumladan Qoraqalpog'istonning o'zidan 5 mingdan ortiq tashkilot a'zolari qatnashadi.[3] Talabalar nafaqat respublika ichidagi ob'ektlarda, balki Sibir, Uzoq Sharq va Qozog‘istondagi yirik loyihalarda ham ishtirok etishgan.

[3] Qoraqalpog'iston komsomoli ayrim masalalari – 1958 yil., 128-bet

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Mustaqillik e’lon qilingach, yoshlar tashkiloti o‘zining siyosiy shaklini o‘zgartirdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida yoshlar tashkilotlari tizimi tubdan isloh qilindi. 1991-yil sentabr oyida O‘zbekiston komsomoli o‘zining so‘nggi syezdida faoliyatini to‘xtatib, o‘zini O‘zbekiston yoshlar ittifoqi deb e’lon qildi. 1991-yil 20-noyabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida"gi qonun mustaqil O‘zbekistonning bu sohadagi ilk huquqiy hujjati bo‘lib, yoshlar tashkilotlarining mustaqil faoliyat yuritishi uchun zamin yaratdi.

Bu davr ilmiy adabiyotlarda "mafkuraviy vakuum"dan "milliy tiklanish"ga o‘tish davri sifatida tavsiflanadi. Ushbu yillarda yoshlar ittifoqi o‘zining yangi yo‘nalishini belgilashga harakat qildi. Sobiq ittifoq davridagi qat’iy nazorat tizimi inqirozga uchragach, yoshlar orasida ijtimoiy faollik pasayishi kuzatildi.

1991-yilda tuzilgan Yoshlar ittifoqi 1996-yilda "Kamolot" jamg‘armasi bilan parallel ishladi. Bu jamg’arma Qoraqalpog’iston Respublikasi hududida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi Yoshlarining Kamolat jamg’armasi haqida” gi 1996- yil 17- apreldagi PP-1425- sonli Farmoyishi asosida 1996- yil 29- aprelda tashkil etiladi va tashkilot rahbari sifatida N.A.Nagmetov tayinlanadi. [4]Bu bosqichda tashkilotning asosiy funksiyasi "ijtimoiy himoya" va "iste’dodlarni kashf etish"ga qaratildi. Bu vaqtga kelib respublika aholisi 1,433 mingdan ortiq bo’lsa, shundan yoshlar 670 mingdan ortig’ini tashkil qilgan. Ijtimoiy markazlar son bo’lsa 768 tani tashkil qilgan. Jamg‘arma orqali birinchi marta yosh olimlar, ijodkorlar va sportchilar uchun maxsus stipendiyalar joriy etildi. Asosan yoshlarning milliy ongini shakillantirish, ma’naviy dunyo qarashlarini kengaytirish, vatanga muhabbat ruxida tarbiyalash maqsadida “ Mustaqillik farzandlar”, “O’zbekiston kelajagi buyuk davlat” kabi mavzularda maktablarda, oliy o’quv yurtlari, ijtimoiy tashkilotlarda davra suhbatlari tashkillashtirildi. Ilk marta maktab o’quvchilari o’rtasida “Davlat ramzlari bilimdoni” ko’rik tanlovlari tashkillashtirsh yo’lga qo’yildi.

[4] Qoraqalpog’iston Milliy davlat arxiv, 555- fond, 1-ro’yxat,19-ish,8-varaq

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

2001-yilda Yoshlar ittifoqi va jamg’arma "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati sifatida birlashdi. 2001-yil 24-yanvarda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tashkil etilishi bilan yoshlar siyosatida yangi bosqich boshlandi. Ushbu tashkilotning faoliyati quyidagi yo‘nalishlarda kengaytirildi:

Harakat maktablarda "Kamalak" (7-14 yosh), kollej va litseylarda esa "Ittifoq" (15-18 yosh) tizimi orqali millionlab yoshlarni birlashtirdi. Har bir ta’lim muassasasida "Yoshlar yetakchisi" lavozimi joriy etildi.

"Kamolot" davrida e’tibor mafkuraviy tarbiyadan milliy ma’naviyatga ko‘chdi. Tashkilot yoshlar orasida "Milliy g‘oya"ni targ‘ib qilishning asosiy mexanizmiga aylandi. Harakat NNT (nodavlat notijorat tashkiloti) maqomida bo‘lsa-da, u davlat bilan uzviy bog‘liq edi. Maktablarda "Kamalak" va "Kamolat" sardorlar tizimi orqali yoshlar yetakchiligi shakllantirildi. "Nihol" mukofoti va "Kelajak ovozi" kabi yirik tanlovlar aynan shu davrda ommalashdi. Bu loyihalar minglab yoshlarning ijtimoiy lift orqali yuqoriga ko‘tarilishiga xizmat qildi. Lekin shu bilan birga shu davrda ham “Kamolat” jamg’armasi davrida bo’lgani kabi asosiy e’tibor ko‘proq madaniy-ommaviy tadbirlar, ko‘rik-tanlovlar bilan band bo‘lib, yoshlarning bandlik va uy-joy kabi real ijtimoiy muammolarini hal qilishda cheklangan imkoniyatga ega edi. Ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda, "Kamolot" faoliyatida "hisobotbozlik" va "sun’iy ommaviylik" unsurlari ustunlik qila boshlagan edi. Tadbirlar soni oshgani bilan, yoshlarning bandlik va uy-joy kabi og‘riqli muammolari tizimli ravishda hal etilmadi. Bu esa 2017-yilda tashkilotning qaytadan transformatsiya qilinishiga asosiy sabab bo‘ldi.

2017-yildagi islohotlar yoshlar tashkilotini "ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi" organga aylantirdi. Yoshlar ittifoqi raisi maqomi bo‘yicha Oliy Majlis Senati a’zosi va Prezident maslahatchisi darajasiga ko‘tarildi. 2017-yildan keyingi bosqichda yoshlar tashkiloti o‘zining ijtimoiy vaznini oshirdi. Endilikda Yoshlar ittifoqi nafaqat konsert va tadbirlar tashkilotchisi, balki bank kreditlari, uy-joy taqsimoti va bandlikka ko‘maklashuvchi jiddiy strukturaga aylandi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Bu yoshlar masalasini davlatning eng yuqori darajasiga olib chiqdi. Shu narsani alohida takidlab o'tish joizki Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev hokimyat boshiga kelgan vaqtida birinchi bo'lib qabul qilgan qonun ham aynan yoshlar siyosati bo'yicha- 2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi[5] qonun edi. Bundan tashqari 2017 yil 5 iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar agentligi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Prezident farmoni yoshlar masalasini yangi bosqichga olib chiqdi va mamlakatimizda 30 iyun - "Yoshlar kuni" deb belgilandi.[6] 2017-yildan keyingi davrda yoshlar tashkiloti o'zining strategik yo'nalishini "nazorat qilish"dan "xizmat ko'rsatish"ga tubdan o'zgartirdi. Huquqiy asoslar yana ham mustahkamlandi: 2020- yilda Yoshlar ittifoqi faoliyatini yana da takomillashtirish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi tashkil qilindi. [7]Agentlik bugungi kunda yoshlar siyosatini amalga oshirishda asosiy bo'g'in sifatida faoliyat yuritmoqda. "Yoshlar daftari" tizimining joriy etilishi bo'lsa alohida ilmiy o'rganish lozim bo'lgan jihatga aylandi . Qisqacha ilmiy tahlil beradigan bo'lsak "Yoshlar daftari" tizimining joriy etilishi avvalambor natijalarni raqamlashtirish imkonini berdi. Endi yordam umumiy emas, balki manzilli (har bir muhtoj yoshga alohida) berila boshlandi. 2021-2023 yillar davomida "Yoshlar daftari" orqali 1 milliondan ortiq yoshlarga turli ijtimoiy-iqtisodiy xizmatlar ko'rsatildi. [8] Bu ko'rsatkich sobiq "Kamolot" davridagi ko'rsatkichlardan 10 baravar yuqoridir. "Yoshlar daftari" — bu shunchaki ro'yxat emas, balki yoshlarning ijtimoiy holatini baholovchi kompleks platformadir. Ushbu platforma orqali:

- OTM talabalarining bazaviy to'lov-kontrakt summasini qoplash uchun yillik milliardlab mablag'lar yo'naltirilmoqda. Agar manashu bandning bajrilish

[5] O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406-son Qonuni. 2016-yil 14-sentabr.
[6] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3138-son qarori. 2017-yil 18-iyul.
[7] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati tizimini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6017-son Farmoni. 2020-yil 30-iyun.
[8] O'zbekiston yoshlar ittifoqi rasmiy veb-sayti: www.yoshlarittifoqi.uz

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

natiyjalarini birgina Qoraqalpog'iston Respublikasi yoshlari misolida ko'radigan bo'lsak raqamlarning naqadar katta, qamrovning naqadar kengligini ko'rishimiz mumkin: shu kungacha 3 500 ortiq qoraqalpog'istonlik talabalarning kontrakt summalari to'lab berilgan, bu 12 mlrd so'mdan ortiq mablag' degani.

- Harbiy xizmatga borishni xohlagan, lekin moddiy imkoniyati cheklangan yoshlarning badal pullari davlat tomonidan to'lanmoqda— bu dunyo tajribasida kam uchraydigan ijtimoiy kafolatdir.

- Global dunyoda raqobatbardoshlikni oshirish uchun IELTS, TOEFL, SAT kabi imtihonlardan yuqori ball olgan yoshlarga imtihon xarajatlarini to'liq qaytarib berish tizimi joriy etildi. Masalan 2000 ortiq yoshning o'quv kurslari to'lab berilgan bo'lib, ularning IT sohasidagi bilimlarini oshirish ham maqsad qilingan. Bugungi kunda Nukus shahrida joylashgan IT markazlarda 1500 dan ortiq yoshlar bepul tahsil olmoqda. [9] Bu ilmiy jihatdan yoshlarning "Inson kapitali" (Human Capital) sifatini oshirishga yo'naltirilgan investitsiyadir. IELTS va boshqa xalqaro imtihon xarajatlarining qoplab berilishi, xorijiy tillarni o'rganishni rag'batlantirish orqali yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga urg'u berildi. Nobel mukofoti sovrindori Gari Bekker yoshlarga qilingan investitsiya davlat iqtisodiyoti uchun eng samarali sarmoya ekanligini isbotlagan. O'zbekiston tajribasidagi Yoshlar ishlari agentligi faoliyati aynan Bekkerning ushbu nazariyasiga amaliy misol bo'la oladi.

2025 yil 30 iyun kuni yoshlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'zining yoshlarga bo'lgan beqiyos e'tibori, mehri, eng muhimi - ishonchini yana bir bor amalda namoyon etdi. Davlat rahbari o'z nutqida yangi tashabbusga alohida urg'u berdi: "Endi yoshlar bizning siyosatimiz obyekti emas, balki subyekti bo'lishi kerak,". Bu degani: Har bir qaror yoshlar bilan maslahatlashib qabul qilinadi, yangi loyiha va dasturlar yoshlarning g'oya va tashabbuslariga tayangan holda yuritiladi, o'z kuchiga ishongan lider yoshlar

[9] Yoshlar ishlari agentligi rasmiy portali: www.yoshlar.gov.uz

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

davlat boshqaruvi tizimiga faol jalb etiladi. Uchrashuvda yoshlar siyosatining mahalliy darajadagi ijrosi ham muhokama qilindi. Xususan: Har bir mahallada yoshlar yetakchilari faoliyat yuritayotgani, so‘nggi yetti yilda boshqaruv kadrlari tarkibi ancha yosharib, 40 yoshgacha bo‘lgan rahbarlar ulushi 37 foizdan 65 foizga yetgani, mahallabay ishlash tizimi orqali joylarda iqtidorli yoshlar aniqlanayotgani alohida qayd etildi. Bu orqali har bir yoshga individual yondashuv va ijtimoiy yordam ko‘rsatilishi ta’minlanmoqda.

Solishtirma tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Komsomol tizimi "vertikal" boshqaruvga (yuqoridan pastga buyruq) asoslangan bo‘lsa, Yoshlar ittifoqi ko‘proq "gorizontal" muloqotga (yoshlarning muammolarini o‘rganish va unga yechim topish) intilmoqda. 1996–2017 yillardagi "Kamolot" davri esa ushbu ikki tizim o‘rtasidagi "ma’naviy ko‘prik" vazifasini o‘tadi, biroq iqtisodiy dastaklarning yo‘qligi uning samaradorligini pasaytirdi.

Muhokama

Komsomol qat'iy markazlashgan edi, "Kamolot" ko'proq jamoat tashkiloti bo'ldi, Ittifoq esa davlat boshqaruviga integratsiya qilindi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yoshlar tashkilotlarining evolyutsiyasi uchta fundamental bosqichdan o‘tgan. Har bir davr o‘zining siyosiy muhiti va ijtimoiy talablaridan kelib chiqib, yoshlar bilan ishlashning o‘ziga xos modellarini shakllantirgan. Komsomol davridagi yoshlar siyosati asosan "davlat manfaati uchun yoshlar" tamoyiliga tayangan bo‘lsa, mustaqillik yillarida, ayniqsa, Yoshlar ittifoqi faoliyatida "yoshlar manfaati uchun davlat" tamoyili ustuvorlik qila boshladi.

"Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati davri (2001–2017) o‘ziga xos o‘tish davri bo‘ldi. Sovet mafkurasi inqirozidan so‘ng, milliy o‘zlikni anglash ehtiyoji tug‘ildi. "Kamolot" o‘z faoliyatini haddan tashqari ommaviy tadbirlar bilan cheklab qo‘ygani uchun, uning yoshlar orasidagi nufuzi tushib ketgan edi. Bu esa 2017-yilda tizimli transformatsiyani taqozo etdi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Hozirgi bosqichning eng muhim farqi — natijadorlikning raqamlarda aks etishi. Komsomol yoki "Kamolot" davrida yoshlarga yordam ko‘rsatishning aniq statistik mexanizmi yani monitoring mavjud emas edi. Bugungi kunda "Yoshlar daftari" orqali har bir yordam (kontrakt to‘lovi, asbob-uskunalar ajratish) elektron bazaga kiritiladi. Bu esa korrupsiyani kamaytirish va yordamning manzilliligini ta’minlash imkonini bermoqda.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasida, shu jumladan Qoraqalpog’istonda yoshlar tashkilotlari "Siyosiy nazorat" - "Ma'naviy tarbiya" - "Ijtimoiy ko'mak" yo‘lini bosib o‘tdi. Hozirgi tizim yoshlarning global raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Amerikalik sociolog Robert Putnam o‘zining "Bowling Alone" asarida ijtimoiy tashkilotlarning jamiyat birlashuvidagi rolini tahlil qilarkan yoshlar tashkilotlari "bog‘lovchi" ijtimoiy kapitalni yaratishi kerakligini alohida takidlaydi. Sobiq ittifoq davrida bu kapital majburiy bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy O‘zbekistonda u ixtiyoriy va professional manfaatlarga tayanmoqda.

O‘zbekistonda yoshlar tashkilotlari tarixiy rivojlanish davomida faqat nomini emas, balki o‘zining ijtimoiy missiyasini ham tubdan o‘zgartirganini ta’kidlash lozim. Komsomolning siyosiy qurol bo‘lgan davridan, "Kamolot"ning ma’naviy targ‘ibot bosqichi orqali o‘tib, bugun Yoshlar ittifoqi shaxsning iqtisodiy va ijtimoiy yuksalishini ta’minlovchi "ijtimoiy lift" vazifasini o‘tamoqda. Kelajakda ushbu tizimni yanada takomillashtirish uchun yoshlarning davlat boshqaruvidagi bevosita ishtirokini dandanan kengaytirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-son Qonuni. 2016-yil 14-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3138-son qarori. 2017-yil 18-iyul.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati tizimini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6017-son Farmoni. 2020-yil 30-iyun.
4. Qoraqalpog’iston komsomoli tarixining ayrim masalalari – Nukus: 1958
5. Mirzaxmedov X., «Jámiyatning transformaciyasida yoshlar axloqi»., Yangi Ózbekistonning istedodli yoshlari- Ilmiy ishlar tóplami., T-2021
6. Sársenbayeva A. «Ózbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish» Toshkent «Tamaddun» 2024.
7. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi rasmiy veb-sayti: www.yoshlarittifoqi.uz
8. Yoshlar ishlari agentligi rasmiy portali: www.yoshlar.gov.uz
9. Qoraqalpog’iston Milliy davlat arxiv, 555- fond, 1-ro’yxat,19-ish,8-varaq